

Date: 9th August-2026

**O‘ZBEKISTONNING JSTGA A‘ZOLIGI SHAROITIDA CHEKKA
HUDUDLARDAGI AYOLLARNING QISHLOQ XO‘JALIGI SAVDOSIGA
RAQAMLI INTEGRATSIYASINI RIVOJLANTIRISH MEKANIZMLARI**

Ashirova Madina Kuchkarovna

O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi
Jahon savdo tashkiloti bilan ishlash bo‘limi bosh mutaxassisi
ashirovamedeya@gmail.com
+998994401001

Annotatsiya: Mazkur tezisda O‘zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga (JST) integratsiyalashuvi sharoitida chekka va qishloq hududlarida istiqomat qiluvchi ayollarning qishloq xo‘jaligi mahsulotlari savdosidagi ishtirokini raqamli vositalar orqali kengaytirishning iqtisodiy va institutsional mexanizmlari asoslab beriladi. 2026-yilda JSTning Savdo va gender masalalari bo‘yicha norasmiy ishchi guruhi kun tartibida raqamlashtirish orqali ayollarning savdodagi imkoniyatlarini kengaytirish, ayollar rahbarlik qiladigan mikro, kichik va o‘rta korxonalarni xalqaro bozorlarga olib chiqish, moliyaviy inklyuziya hamda gender kesimidagi savdo ma‘lumotlarini takomillashtirish masalalariga berilayotgan e‘tibor tahlil qilinadi. Tadqiqot uchun “raqamli kirish – elektron savdo – moliyaviy integratsiya – standart va kuzatuvchanlik – eksport integratsiyasi” tamoyiliga asoslangan besh bosqichli mexanizm hamda chekka hududlardagi ayollarning raqamli savdo integratsiyasi darajasini baholashga xizmat qiluvchi Rural Women Digital Trade Integration Index (RWDTI) konseptual modeli taklif etiladi.

Kalit so‘zlar: JST, raqamli iqtisodiyot, xalqaro raqamli integratsiya, savdo va gender, qishloq ayollari, elektron tijorat, qishloq xo‘jaligi savdosi, eksport, raqamli to‘lovlar, kuzatuvchanlik (traceability), MSME, WEIDE, SheTrades.

KIRISH

Jahon savdosining raqamlashtirilishi tovarlarning bozorda harakatlanishi, xaridor va sotuvchi o‘rtasidagi aloqalar, to‘lovlar, logistika hamda standartlarga muvofiqlikni tasdiqlash jarayonlarini tubdan o‘zgartirmoqda. Raqamli platformalar va elektron savdo infratuzilmasining rivojlanishi geografik jihatdan markazlardan uzoqda joylashgan ishlab chiqaruvchilar uchun bozorga kirish xarajatlarini pasaytirishi, vositachilar sonini kamaytirishi va yangi xaridorlarga chiqish imkoniyatini yaratishi mumkin. Ushbu imkoniyatlar qishloq xo‘jaligida faoliyat yuritayotgan, biroq bozor, moliya va logistika xizmatlariga kirishi nisbatan cheklangan ayollar uchun ayniqsa muhimdir.

Mavzuning dolzarbligi JSTning 2026-yildagi savdo va gender kun tartibi bilan ham tasdiqlanadi. Savdo va gender masalalari bo‘yicha norasmiy ishchi guruhning 2026-yil 1-iyundagi yig‘ilishida MC14 doirasida erishilgan natijalar qatorida “Raqamlashtirish orqali ayollarning savdodagi imkoniyatlarini kengaytirish: siyosatga oid xulosalar” yo‘nalishidagi ish boshlanganligi qayd etilgan. Mazkur ish Savdo va gender masalalari bo‘yicha norasmiy ishchi guruhi hamda mikro, kichik va o‘rta korxonalar bo‘yicha norasmiy ishchi guruh



Date: 9th August-2026

hamkorligida olib borilmoqda (JST, INF/TGE/CN/28/Rev.2, 2026). Bu holat raqamlashtirishning xalqaro savdo siyosatida inklyuzivlikni ta'minlovchi mexanizm sifatidagi ahamiyati ortib borayotganini ko'rsatadi.

TADQIQOT MUAMMOSI VA MAQSADI

Chekka hududlarda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish, qayta ishlash va sotishda ayollarning amaliy ishtiroki mavjud bo'lsa-da, ularning iqtisodiy natijadan oladigan ulushi ko'pincha bozorga bevosita chiqish imkoniyati, narx haqidagi axborot, logistika, sertifikatlashtirish, elektron to'lov va rasmiy eksport kanallariga kirish darajasiga bog'liq. Shu sababli ayollarning ishlab chiqarishdagi faolligi ularning savdo va yuqori qo'shilgan qiymat yaratish zanjiridagi to'liq ishtirokini avtomatik ravishda ta'minlamaydi.

Tadqiqotning maqsadi – O'zbekistonning JSTga a'zoligi sharoitida chekka hududlardagi ayollarni qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga raqamli integratsiya qilishning iqtisodiy, institutsional va tashkiliy mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Mazkur maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilanishi mumkin:

- chekka hududlardagi ayollarning qishloq xo'jaligi savdosida ishtirokiga ta'sir etuvchi raqamli, moliyaviy, logistika va institutsional omillarni tizimlashtirish;
- JSTning savdo va gender hamda raqamlashtirish yo'nalishidagi so'nggi tashabbuslarini tahlil qilish va ularning O'zbekiston sharoitida qo'llanish imkoniyatlarini aniqlash;
- ayol ishlab chiqaruvchini mahalliy savdodan elektron va eksport savdosigacha olib boruvchi bosqichma-bosqich integratsiya mexanizmini ishlab chiqish;
- chekka hududlardagi ayollarning raqamli savdo integratsiyasi darajasini baholovchi ko'rsatkichlar tizimi va integral indeks metodologiyasini shakllantirish;
- davlat qo'llab-quvvatlash choralari va raqamli savdo infratuzilmasini hududlar kesimida differensiallashtirish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqish.

JST KUN TARTIBIDA SAVDO, GENDER VA RAQAMLASHTIRISHNING UYG'UNLASHUVI

JST materiallarida ayollarning savdodagi ishtirokini oshirish masalasi tobora raqamli transformatsiya, mikro va kichik biznes, moliyaviy inklyuziya, intellektual mulk hamda eksport salohiyati bilan bog'liq holda ko'rilmogda. 2026-yilgi yig'ilish materiallarida ayollar uchun raqamlashtirish bo'yicha siyosiy xulosalarni shakllantirish, ma'lumotlar bazasini yaratish va turli xalqaro hamda mintaqaviy tashkilotlardan amaliy tajribalarni to'plash rejalashtirilgani qayd etilgan.

Xalqaro tajribada ayol tadbirkorlarning savdoda faolroq ishtirok etishiga to'sqinlik qiluvchi omillar sifatida intellektual mulk huquqlari va xalqaro tizimlar bo'yicha xabardorlikning pastligi, huquqiy va moliyaviy yordamning yetarli emasligi, mentorlik va biznes aloqalariga kirishning cheklanganligi hamda tijoratlashtirish imkoniyatlarining kamligi ko'rsatilgan. Jumladan, Pokiston tajribasida ayollar uchun maxsus axborot va huquqiy yordam mexanizmlari, texnologiyalar va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash markazlari hamda ayol tadbirkorlarga yo'naltirilgan maxsus loyihalar qo'llanilayotgani qayd etiladi.



Date: 9th August-2026



WIPO va ITCning qo'shma tajribasi esa individual mentorlik, biznes-ko'uching, intellektual mulkni biznes-rejalashtirishga integratsiya qilish hamda xalqaro bozorlarga chiqish uchun amaliy ko'makni bir paketda taqdim etish samarali yondashuv ekanini ko'rsatadi. 2026-yilgi materiallarda WEIDE – "Raqamli iqtisodiyotda ayol eksportchilar" jamg'armasi bilan bog'liq ishlar alohida qayd etilgan.

Mongoliyada SheTrades Mongolia Hub salohiyatni oshirish, biznes aloqalarini rivojlantirish va xalqaro hamkorlar bilan tajriba almashish maydoni sifatida faoliyat yuritmoqda. WEIDE dasturi doirasida ayollar rahbarlik qiladigan 45 ta korxona raqamli savdo va xalqaro bozorlardagi ishtirokini kuchaytirish uchun o'quv, moliyaviy ko'mak va amaliy yordam olishga tanlangan. Shuningdek, savdo va biznes ma'lumotlarini gender kesimida takomillashtirish zarurligi ta'kidlangan (JST, INF/TGE/CN/28/Rev.2, 2026).

Braziliya va Chili o'rtasidagi savdo tajribasi ham ayollar rahbarlik qiladigan korxonalarni tashqi savdoga integratsiya qilishning iqtisodiy natijasini ko'rsatadi. Yig'ilish materialiga ko'ra, Braziliyadagi ayollar rahbarlik qiladigan korxonalarining Chiliga eksporti 2021-yildagi 187 mln AQSH dollaridan 2024-yilda 397 mln AQSH dollaridan ortiq miqdorga yetgan, ya'ni 112 foizga oshgan. Eksport qilinadigan tarif pozitsiyalari soni esa 428 tadan 542 taga ko'paygan. Mazkur misol savdo va gender siyosatini faqat ijtimoiy masala emas, balki eksportni diversifikatsiyalash va iqtisodiy o'sish instrumenti sifatida ko'rish mumkinligini ko'rsatadi.

CHEKKA HUDUDLARDAGI AYOLLARNING RAQAMLI SAVDO INTEGRATSIYASIDAGI ASOSIY TO'SIQLAR

O'zbekiston sharoitida muammoni "ishlab chiqarish – bozorga kirish – raqamli savdo – to'lov – logistika – standart – eksport" zanjiri orqali baholash maqsadga muvofiq. Ushbu zanjirning biror bo'g'inida uzilish mavjud bo'lsa, ayol ishlab chiqaruvchi tayyor mahsulotni yuqori marja bilan sotish o'rniga mahalliy vositachiga topshirishga majbur bo'lishi mumkin. Shu bois raqamli integratsiyani faqat internetdan foydalanish yoki ijtimoiy tarmoqda mahsulot reklama qilish darajasida talqin etish yetarli emas.

Tadqiqot doirasida quyidagi to'siqlarni alohida baholash taklif etiladi:

- raqamli qurilmalar, barqaror internet va elektron identifikatsiya vositalaridan foydalanish imkoniyati;
- elektron tijorat platformalarida mahsulot joylashtirish, narx belgilash va buyurtmalarni boshqarish ko'nikmalari;
- bank hisobraqami, elektron to'lovlar, mikromoliyalashtirish va savdo aylanmasini rasmiylashtirish imkoniyatlari;
- mahsulot sifati, qadoqlash, sertifikatlashtirish, sanitariya va fitosanitariya talablari bo'yicha bilim hamda xizmatlarga kirish;
- logistika, saqlash, sovuq zanjir va yetkazib berish xizmatlari bilan bog'lanish;
- mahsulot kelib chiqishi va harakatini raqamli qayd etish, ya'ni kuzatuvchanlik tizimlariga ulanish;
- eksport bozorlariga oid ma'lumot, kontrakt, bojxona va elektron eksport xizmatlaridan foydalanish imkoniyati.

Date: 9th August-2026

TAKLIF ETILAYOTGAN BESH BOSQICHLI RAQAMLI INTEGRATSIYA MEXANIZMI

Tadqiqotning asosiy ilmiy-amaliy taklifi sifatida chekka hududlardagi ayollarni qishloq xo'jaligi savdosiga integratsiyalashning besh bosqichli mexanizmi taklif etiladi.

1. Raqamli kirish va savdo kompetensiyalari. Ayollarga elektron savdo platformalarida ro'yxatdan o'tish, raqamli katalog yaratish, mahsulot fotosurati va tavsifini tayyorlash, onlayn marketing, buyurtmalarni boshqarish, xarajat va narxni elektron hisoblash ko'nikmalarini berish. Natijadorlik trening ishtirokchilari soni bilan emas, amalda savdo operatsiyasini bajargan ayollar ulushi bilan baholanadi.

2. Raqamli platformalarga institutsional integratsiya. Chekka hududlarda "Women Agro Digital Hub" turidagi xizmat nuqtalarini shakllantirish taklif etiladi. Ular ishlab chiqaruvchi – elektron platforma – xaridor – to'lov – logistika o'rtasidagi bog'lovchi institut sifatida mahsulotlarni guruhlash, elektron kataloglash, buyurtmalarni rasmiylashtirish va logistika xizmatlari bilan bog'lash funksiyalarini bajarishi mumkin.

3. Raqamli moliyaviy integratsiya. Elektron hamyon, bank hisobraqami, elektron to'lov, mikromoliyalashtirish va elektron savdo tarixini o'zaro bog'lash zarur. Elektron savdo tarixi keyinchalik mikrobiznesning moliyaviy intizomi va kreditga layoqatini baholashda qo'shimcha ma'lumot manbai bo'lib xizmat qilishi mumkin. JSTning 2026-yilgi materiallarida ayol tadbirkorlar uchun moliyaviy inklyuziya tashabbuslari alohida kun tartibiga olib chiqilgani mazkur yo'nalishning dolzarbligini oshiradi.

4. Standartlar va raqamli kuzatuvchanlikka integratsiya. JSTga a'zolik sharoitida bozorlarga chiqish imkoniyati faqat tariflar bilan emas, balki mahsulot sifati, sanitariya va fitosanitariya talablari, texnik standartlar, qadoqlash, kelib chiqish va kuzatuvchanlik bilan ham belgilanadi. Shu sababli ayol ishlab chiqaruvchilar uchun QR-kod asosidagi soddalashtirilgan "ishlab chiqaruvchi – hudud – mahsulot – ishlab chiqarish sanasi – sertifikat – xaridor" ma'lumot zanjirini joriy etish va uni kelgusida milliy traceability tizimlariga ulash taklif etiladi.

5. Mahalliy ishlab chiqaruvchidan raqamli eksportchigacha. Yakuniy bosqichda ayol ishlab chiqaruvchining iqtisodiy maqomini bosqichma-bosqich o'zgartirish nazarda tutiladi: qishloq xo'jaligi mahsuloti yetishtiruvchi → mahalliy bozorda sotuvchi → elektron savdo ishtirokchisi → rasmiy tadbirkor → elektron eksportchi → xalqaro qiymat zanjiri ishtirokchisi. Bu model raqamli integratsiyani aniq iqtisodiy natija bilan bog'laydi.

TAKLIF ETILAYOTGAN MEXANIZMLARNING TIZIMLI KO'RINISHI

Yo'nalish	Asosiy muammo	Taklif etilayotgan mexanizm	Natijani baholash ko'rsatkichi
Raqamli kirish	Ko'nikma va texnologiyadan foydalanish cheklangan	Amaliy e-commerce treninglari, raqamli katalog va buyurtma boshqaruvi	Faol onlayn sotuvchilar ulushi
Bozorga ulanish	Yakka ishlab chiqaruvchining	Women Agro Digital Hub va agregatsiya modeli	Platformaga ulangan ayollar va



Date: 9th August-2026

	platformaga chiqish xarajati yuqori		savdo hajmi
Moliyaviy integratsiya	Naqd hisob-kitob va kredit tarixining yetishmasligi	E-to'lov + hisobvaraqa + mikromoliya + raqamli savdo tarixi	Naqdsiz savdo ulushi va moliyalashtirishdan foydalanish
Standart va traceability	Sertifikat, sifat va kelib chiqishni tasdiqlashdagi qiyinchilik	QR-kod, raqamli mahsulot profili, sertifikat xizmatlariga ulash	Kuzatuvchan mahsulot va sertifikatlangan ishlab chiqaruvchilar ulushi
Eksport integratsiyasi	Eksport axboroti, logistika va rasmiy tartib-taomillarga kirish cheklangan	Elektron eksport xizmatlari, logistika va xalqaro platformalar bilan bog'lash	Hududdan tashqari va eksport savdolari ulushi

ILMIY YANGILIK VA BAHOLASH METODOLOGIYASI

PhD tadqiqotining ilmiy yangiligi sifatida chekka hududlardagi ayollarning qishloq xo'jaligi savdosiga raqamli integratsiyasi darajasini kompleks baholovchi Rural Women Digital Trade Integration Index (RWDTI) – "Qishloq ayollarining raqamli savdo integratsiyasi indeksi"ni ishlab chiqish taklif etiladi.

$$RWDTI = w_1DA + w_2EC + w_3FI + w_4SC + w_5EI$$

Bunda DA – Digital Access (raqamli kirish), EC – E-Commerce Participation (elektron savdoda ishtirok), FI – Financial Integration (moliyaviy integratsiya), SC – Standards and Certification (standartlashtirish, sertifikatlashtirish va kuzatuvchanlik), EI – Export Integration (eksport integratsiyasi); $w_1...w_5$ esa subindekslarning vazn koeffitsiyentlaridir. Vaznlarni ekspert baholash, analitik ierarxiya usuli yoki empirik ma'lumotlar mavjud bo'lganda statistik usullar yordamida aniqlash mumkin.

Indeksning metodologik afzalligi shundaki, u "internetdan foydalanadimi?" degan bitta indikator bilan cheklanmaydi, balki raqamli vositalarning real iqtisodiy savdo natijasiga aylanishini o'lchaydi. RWDTI tumanlar yoki tanlangan pilot hududlar kesimida hisoblanib, past, o'rta va yuqori integratsiya darajalarini ajratishga xizmat qilishi mumkin. Natijada qo'llab-quvvatlash choralari barcha hududlarga bir xil taqsimlanmay, mavjud muammo va integratsiya bosqichiga qarab differensiallashtiriladi.

Tadqiqotda miqdoriy va sifat usullarini uyg'unlashtirish maqsadga muvofiq: ayol ishlab chiqaruvchilar o'rtasida so'rovnomalar, yarim tuzilmaviy intervyular, fokus-guruhlar, elektron savdo holati bo'yicha indikatorlar, hududiy taqqoslash, indeks usuli hamda pilot mexanizmning natijadorligini "oldin-keyin" tamoyili asosida baholash. Empirik baza shakllantirilgach, raqamli integratsiya darajasining savdo hajmi, bozorga chiqish radiusi, vositachilar ulushi va daromadga ta'siri ekonometrik usullar yordamida tekshirilishi mumkin.



Date: 9th August-2026

KUTILAYOTGAN ILMIY-AMALIY NATIJALAR

- chekka hududlardagi ayollarning qishloq xo'jaligi savdosiga raqamli integratsiyasi tushunchasining iqtisodiy mazmuni va tarkibiy elementlari aniqlashtiriladi;
- JSTning savdo va gender kun tartibi bilan uyg'un bo'lgan, O'zbekiston sharoitiga mos besh bosqichli raqamli integratsiya mexanizmi ishlab chiqiladi;
- RWDTI integral indeksi va uni hisoblash uchun indikatorlar tizimi taklif etiladi;
- hududlarni integratsiya darajasi bo'yicha guruhlash va davlat qo'llab-quvvatlash choralarini differensiallashtirish metodikasi shakllantiriladi;
- Women Agro Digital Hub modeli orqali elektron savdo, moliya, standart, logistika va eksport xizmatlarini "yagona nuqta" tamoyilida bog'lash bo'yicha tashkiliy mexanizm asoslanadi;
- raqamli integratsiya samaradorligini faqat o'qitilganlar soni bilan emas, real onlayn savdo, naqdsiz hisob-kitob, sertifikatlash va eksportga chiqish ko'rsatkichlari orqali baholash yondashuvi taklif qilinadi.

XULOSA

O'zbekistonning JSTga a'zoligi sharoitida qishloq xo'jaligi tarmog'ining xalqaro bozorga integratsiyasi chuqurlashib borishi hududiy ishlab chiqaruvchilar uchun bir vaqtning o'zida yangi imkoniyatlar va yangi raqobat talablarini yuzaga keltiradi. Chekka hududlardagi ayollar uchun bu imkoniyatlardan foydalanish darajasi ularning raqamli savdo infratuzilmasiga qanchalik to'liq ulanganiga bog'liq.

2026-yilgi JST materiallari savdo, gender, raqamlashtirish, moliyaviy inklyuziya va ayollar boshqaruvidagi mikro hamda kichik korxonalarni xalqaro bozorlarga olib chiqish masalalari o'zaro yaqinlashayotganini ko'rsatadi. WEIDE va SheTrades kabi tashabbuslar ayol tadbirkorni faqat o'qitish emas, balki moliyaviy, maslahat, intellektual mulk va bozor xizmatlari bilan birgalikda qo'llab-quvvatlash zarurligini ko'rsatmoqda.

Shundan kelib chiqib, O'zbekiston uchun "raqamli kirish → elektron savdo → raqamli moliya → standart va kuzatuvchanlik → eksport integratsiyasi" modeli taklif etiladi. Ushbu yondashuvning asosiy farqi raqamlashtirishni mustaqil maqsad sifatida emas, balki ayol ishlab chiqaruvchining qishloq xo'jaligi qiymat zanjiridagi iqtisodiy mavqei, bozor qamrovi va qo'shilgan qiymatdan oladigan ulushini oshiruvchi mexanizm sifatida talqin etishidir. Taklif etilayotgan RWDTI indeksi esa mazkur jarayonni hududlar kesimida o'lchash, muammoli bo'g'inlarni aniqlash va davlat siyosatini aniq maqsadli shakllantirish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN MANBALAR:

1. World Trade Organization. Informal Working Group on Trade and Gender. Informal summary of the meeting of 1 June 2026. INF/TGE/CN/28/Rev.2.
2. World Trade Organization. Strengthening the global trading system through women's economic empowerment. Joint Statement, WT/MIN(26)/5 (hujjat INF/TGE/CN/28/Rev.2da qayd etilgan).
3. World Trade Organization. Empowering Women in Trade through Digitalization: Policy Insights. WT/MIN(26)/4 (INF/TGE/CN/28/Rev.2da qayd etilgan tashabbus).



Date: 9th August-2026

4. World Trade Organization. Trade and Gender IWG – Achievements Tracker. WT/MIN(26)/25 (INF/TGE/CN/28/Rev.2da qayd etilgan).
5. ITC/WIPO va WEIDE/SheTrades tashabbuslari bo'yicha 2026-yilgi taqdimotlar: JST Savdo va gender masalalari bo'yicha norasmiy ishchi guruhi yig'ilishi materiallari, INF/TGE/CN/28/Rev.2.

Izoh. JSTning 2026-yilgi yig'ilish materialida O'zbekistonning chekka hududlaridagi ayollar bo'yicha alohida mikrostatistik ma'lumotlar keltirilmagan. Shu sababli RWDTI indeksi, Women Agro Digital Hub va besh bosqichli integratsiya mexanizmi mazkur tezis doirasidagi mualliflik ilmiy takliflari sifatida shakllantirilgan; xalqaro tajriba va dolzarblik esa yuqorida ko'rsatilgan JST materialiga tayangan.

